

ISSN 2181-7138

МУАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Нөкис



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Айтбаев Д. Т. Асимметрик дуализм коммуникациянинг семиотик тамойили сифатида	6
Yuldasheva Sh. Sh. Та'limni raqamlashtirish sharoitida o'zbek tilini qardosh tillardagi guruhlarda o'qitishning o'ziga xosliklari va tajribalar	13
Arifjanova O. Q. Ingliz tilini o'qitishdagi yangi texnikalar: o'qish(reading) va eshitib tushunish(listening) misolida	20
Неъматова С. Глубокие корни развития литературы	25
Мирзорохимов О. К. Для чего предназначен словарь	33

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Yusupova M. A., Baxtiyorova S. E. Pedagog tarjimonlarni tayyorlash zaruriyati	40
Jabborova O. M., Baxtiyorova S. E. Bo'lajak ingliz tili pedagoglarini xalqaro ta'lim dasturlari bilan tanishtirish yo'nalishlari	44
Narimbetova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida o'quvchilarning geometrik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	48
Umarova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning turlari	52
Umarova Z. A., Nazirjonova M. B. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari	60
Xusnetdinov U. I. Qoraqalpog'iston Respublikasi talaba yoshlarida ekologik madaniyatni shakllantirish g'oyasining rivojlantirish yo'llari	64
Qarshiboyeva X. K. TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari	72
Beketov N. A. Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni boshqarish	78
Beketov N. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarbiya funksiyalari	84
Quzmanova G. B., Davlatova M. A. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS hamda PISA xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi	95
Kuchkinov A. Yu., Tilovova S. B. EKO-STEAM ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo yondashuv	100
Qorajonova B. T. Maktablarda psixologik maslahat tashkil etishning samarali shakl va uslublari	110
Абдурахмонова У. Н. Педагогик фаолиятда инновациялардан самарали фойдаланишни ташкил этиш йўллари	117
Turayeva G. E. Pedagogik jarayonni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyat va afzalliklari	121
Xurramova M. A. Ta'lim mazmunini shakllantirishda hermenevtik yondashuv imkoniyatlari	126
Achilov T. S. Vatanparvarlik tarbiyasi – maktab o'quvchilarining qiymat-semantik kompetensiyasini shakllantirishning muhim elementi sifatida	134
Abdusalilova D. Madaniyatlararo muloqot yo'nalishida «ijtimoiy-madaniy kompetentlik» tushunchasi	141
Мусурманкулова М. Н. Изучение сопоставительно-диаектологической компетенции в современной педагогике	146
Шамиева О. Р. Роль дисфункциональных родителей в эмоциональном благополучии ребёнка	152
Ochilov E. Yu. Role of ai-powered chatbots in increasing efficiency of learning processes	156



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING GEOMETRIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Narimbetova Z. A.

ChDPU, katta o'qituvchi

Tayanch so'zlar: geometriya, raqamli ta'lim, texnologiya, qobiliyat, kompetensiyalar iyerarxiyasi.

Ключевые слова: геометрия, сифровое образование, технологии, способности, иерархия компетенций.

Key words: geometry, digital education, technologies, abilities, hierarchy of competencies.

Tobora jadallashib borayotgan rivojlanish sharoitida maktab ta'limining vazifalaridan biri o'quvchilarni yuqori texnologiyalar va axborot dunyosidagi hayotga moslashtirishdir. Ushbu muammoni hal qilishda o'quvchilarda axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida geometrik kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimi amaliyoti, xalqaro tadqiqotlar va ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nazariy bilimlarga ega bo'lgan o'quvchilar ushbu bilimlarni real vaziyatlarga tatbiq etishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilarda bilim, ko'nikma, faoliyat usullarini amaliy vaziyatlarda va kundalik hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlashiga qaramasdan, geometriya bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi ushbu talablarga amalda mos emas. Pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri bu predmetga oid kompetensiyalarni shakllantirishning xususiy usullarini ishlab chiqish, shu jumladan ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlash vositalarini tavsiya etishdir. Geometriyani o'rgatish jarayonida o'quvchilarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari I. N. Allagulova, S. N. Skarbich, O. V. Temnyatkina va boshqalarning dissertatsiya tadqiqotlarida tahlil qilingan [1]. Mualliflar kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni turli xil vositalar, shu jumladan axborot texnologiyalari bilan ta'minlanishi mumkinligini asoslab bergan. V. A. Dalinger, P. P. Dyachuk, M. P. Lapchik, V. R. Mayer, L. P. Martirosyan, M. N. Maryukov,

I.V.Kuznetsovalarning ilmiy ishlari ta'lim jarayonida Internet texnologiyalaridan foydalanish muammolariga bag'ishlangan[1]. Ushbu ilmiy-tadqiqot ishlarida elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, test tizimlari, chizmachilik muharrirlari, raqamli ta'lim resurslari va boshqalarni o'z ichiga olgan axborot texnologiyalari vositalari o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchining mustaqillik darajasini oshirish, geometrik obyektlarni modellashtirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirish imkonini berishi ta'kidlanadi.

Bugungi kunda umumta'lim maktabi o'quvchilarida umumiy, fanga oid hamda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda geometriya predmeti alohida ahamiyatga ega, elektron resurslardan o'quv jarayonida foydalanish geometriyaga oid kompetensiyalarni – nazariy bilimlarni, grafik savodxonlikni, o'quv va bilish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Planimetri masalalar yechishni o'rgatishda o'quvchilarning grafik savodxonligini shakllantirish, kompyuterdan foydalanish masalalari S. M. Ganeev ishlarida ochib berilgan. O. V. Xaritonova axborot texnologiyalaridan foydalangan holda geometriya darslarida o'rta maktab o'quvchilarining o'quv va kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish muammosini ko'rib chiqadi. G. L. Abdulgalimovning tadqiqotida esa kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda geometriyadan o'quvchilarda asosiy bilimlar tizimini shakllantirish metodikasi ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, geometriyaga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishda virtual laboratoriyalar yaratish va ulardan foydalanish, muhim didaktik imkoniyatlariga qaramay, alohida tadqiq etilmaganligini ta'kidlash mumkin.

Bugungi tez o'sib borayotgan axborot sharoitida inson nafaqat ma'lum miqdordagi bilim, ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lishi, balki ularni maqsadga erishish yoki muammoni hal qilish vositasi sifatida ishlata olishi muhim. Tashabbuskorlik, mustaqillik, o'zini o'zi boshqarish va o'zini-o'zi rivojlantirish kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish zarurati tug'ildi. Maktab ta'limini kompetensiyaga asoslangan yondashuvga yo'naltirish mavjud ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan talablarni, o'qitish va tarbiyalash natijalarini baholash mezonlarini o'zgartirishni va ta'limning sifat jihatidan yangi darajasiga erishishni o'z ichiga oladi. Davlat ta'lim standartlari asosiy umumiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijalariga qo'yiladigan talablar sifatida umumiy ta'lim maktablari bitiruvchisining kompetensiyalari yig'indisining tavsifini o'z ichiga oladi.


V. V. Baydenko, V. A. Bolotov, A. A. Verbiskiy, Ye. F. Zeer, I. A. Zimnyaya, V. V. Krayevskiy, O. E. Lebedev, A. V. Xutorskoy kabi MHD olimlari, Robert Uayt, Djon Raven, Noam Xomskiy, Levi Stross, Djekob Moreno, E.Terhart,



S.Blömeke, J.Zheng, G.Lehmann, W.Nieke, M.Löwisch, G. Bergard, V. Blum, X. Markus, R. Sterner kabi xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyati, bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Kompetensiyaviy yondashuvining batafsil ta'rifini O.E.Lebedevning ilmiy ishlarida uchramiz: "kompetensiyaviy yondashuv – bu ta'lim maqsadlarini aniqlash, ta'lim mazmunini tanlash, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholashning umumiy tamoyillari to'plami. Ushbu tamoyillar quyidagilar orqali o'z ifodasini topadi: 1) o'qitish ma'nosi o'quvchilarning ijtimoiy tajribadan foydalanishga asoslangan turli sohalaridagi va faoliyat turlaridagi muammolarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyatini rivojlantirishdir; 2) ta'lim mazmuni didaktik jihatdan moslashtirilgan ijtimoiy bilim, mafkuraviy, axloqiy, siyosiy va boshqa muammolarni hal qilish tajribasi; 3) ta'lim jarayonini tashkil etishning ma'nosi o'quvchilarning kognitiv, kommunikativ, tashkiliy, axloqiy va boshqa vazifalarni mustaqil ravishda hal qilish tajribasini shakllantirish uchun sharoit yaratishdir; 4) ta'lim natijalarini baholash ta'limning muayyan bosqichida o'quvchilar erishgan ta'lim darajalarini tahlil qilishga asoslanadi»[4].

"Kompetensiya" tushunchasi ta'riflaridan asosiylariga to'xtalib o'tamiz. V. I. Baydenko, Ye. F. Zeer va V. V. Krayevskiyar kompetensiyalarni namoyon qilish uchun tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish zarur, deb hisoblaydilar. Shishovlarning ta'riflarida bilimlarni amaliyotda qo'llashga alohida urg'u berilgan[3]. V.V.Krayevskiy muayyan harakat usullarini egallashni, shaxsiy manfaatning mavjudligini nazarda tutadi S.E.Shishov va I. G. Agapovlarga ko'ra, kompetensiyalar "olingan ta'limning faoliyatga xos tarkibiy qismi bo'lib, notanish vaziyatlarda bilim, ko'nikma va malakalarni namoyon qilishga yordam beradi". Bizning tadqiqotimizda A. V. Xutorskoy tomonidan berilgan ta'rifga tayanamiz: "kompetentlik – bu shaxsning tegishli kompetensiyaga egalik qilishi, tegishli vakolatlarni egallashi, shu jumladan unga va faoliyat predmetiga bo'lgan shaxsiy munosabati", kompetensiya esa obyektlar va jarayonlarning ma'lum doirasiga nisbatan samarali harakat qilish uchun zarur bo'ladigan shaxsiy fazilatlar to'plami (bilim, ko'nikma, faoliyat usullari)»[2]. A.V.Xutorskoy tomonidan taqdim etilgan kompetensiyalar iyerarxiyasida tayanch kompetensiyalar eng yuqori pozitsiyani egallaydi: «tayanch kompetensiyalar – ta'limning umumiy (fanlararo) mazmuni bilan bog'liq; umum predmetli kompetensiyalar – o'quv fanlari va ta'lim sohalarining ma'lum bir doirasi bilan bog'liq; predmetga xos kompetensiyalar – xususiy, ya'ni aniq bir fan doirasida shakllantiriladigan kompetensiyalar.

Tadqiqotchilar tomonidan dastlab universal, tayanch kompetensiyalar aniqlanib, 1992-yilda "Yevropada o'rta ta'lim" loyihasi doirasida asosiy



1-rasm. Geometrik kompetensiyalar strukturasi

kompetensiyalarning turlari aniqlandi: o'rganish, qidirish, o'ylash, hamkorlik qilish, moslashish va h.k.

Asosiy kompetensiyalar subyektning ongli faoliyati natijasida shakllanganligi sababli, ular faoliyatning barcha asosiy usullarini qamrab oladi va unga ushbu kompetensiyalarni vaziyatga mos ravishda ishlatishga imkon beradi. Shuning uchun ular universaldir va har qanday o'quv predmeti doirasida, maktabdagi o'quv jarayonining barcha bosqichlarida shakllantirilishi mumkin. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarida geometrik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida asosiy kompetensiyalar strukturasi aniqlashtirildi (1-rasm).

Adabiyotlar:

1. Байденко В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) // Высшее образование в России. 2004. – № 11. – С. 3–13.;
2. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно- ориентированной парадигмы образования [Текст]/А.В. Хуторской //Народное образование.-2003.- №2.-С.58-64. б. 60].
3. Гришанова.- М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.- 16 с.
4. Краевский, В.В. Основы обучения. Дидактика и методика [Текст] / В.В. Краевский, А.В. Хуторской.- М.: Издательский центр «Академия», 2007.-352 с.].

РЕЗЮМЕ

Maqola fan va texnika rivojlangan hozirgi paytda ta'lim sohasida matematika fanida axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida o'quvchilarning geometrik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniq misollar yordamida ko'rsatib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье на конкретных примерах показано, что в условиях развития науки и техники важно развивать геометрические компетенции учащихся в области математики на основе информационных и коммуникационных технологий.

SUMMARY

The article shows on specific examples that in the context of the development of science and technology, it is important to develop the geometric competencies of students in the field of mathematics based on information and communication technologies.